Техническое задание

O‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha

SHARTNOMA № 2025-4/15

2025-yil “ 21 **”** 10 **Denov tumani**

O‘zbekiston Respublikasi Prizitemtining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash tog‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son farmoni hamda O’zbekiston Respublikiasi Prizidentining 2021-yil 16-iyundagi “Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o’quv yiliga tayyorgarlik Jarayonlari to’g’risida” o‘tkazilgan vidioselektr yig‘ilishi 34-sonli bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tadbrkorlik va pedagogika instituti (keying o‘rinlarda institut) nomidan (bir tomondan) institut Ustavi asosida rektor **O.A.Ruziyev**, ikkinchi tomondan Denov tuman 4-sonli Politexnikum direktori **B. Axrorov** (keying o‘rinlarda texnikum), Ustavi asosida texnikum direktori va Axborot texnologiyalari kafedrasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha shartnoma tuzildi.

I. Umumiy qoidalar

1.1. Oliy ma’lumotli mutaxasislarni tayyorlash sifatini oshirishda ijtimoiy sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatdosh kadrlar tayyorlashning mazmunini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, texnika va texnalogiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish maqsadida Axborot texnologiyalari kafedrasi bilan hamkorlik amalga oshiriladi:

Axborot texnologiyalari kafedrasi va texnikumning o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

Texnikumning mutaxassislar tayorlash sifatiga bo‘lgan talablarini bevosita ta’lim mazmunini shakillantirishda institut professor –o‘qituvchilarni tomonodan tizimli o‘rganib borilishini tashkil etish maqsadida stajirovkalar joriy qilish;

Rivojlangan xorijiy davlatlarning eng ilg‘or tajribasini o‘rgangan hamda Texnikumning mutaxssislarga bo‘lgan talabidan kelib chiqan holda o‘quv rejalari, fan dasturlar, o‘quv adabiyotlari, shu jumladan o‘quv metodik komplekslari xalqaro standardlar asosisa, zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilishni o‘zaro hamkorlikda amalga oshirish;

Hamkorlikda texnikumning istiqboli rivojlantirish dasturini hisobga olib oliy malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini yillar kesimida aniq manzilli ta’lim yo‘nalshi hamda mutahassisligini ko‘rsatgan holda, aniq balans beradigan hisob-kitoblar asosida ishlab chiqish;

Axborot texnologiyalarining ta’lim yo‘nalishlarida zamonaviy axborot-komunikatsion texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish va qo‘llash;

Texnikumning muammolarini o‘rganish va ularning yechimi bo‘yicha ilmiy hamda Amaliy takliflar ishlab chiqish. Ilmiy maqolaalar tayyorlash va ularni nashir qilish;

Hamkorlikda seminarlar o‘tkazish;

Texnikumda talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo‘sh ish o‘rinlarga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko‘rish;

Axborot texnologiyalari kafedrasini professor-o‘qituvchilarining texnikumda Amaliy tadqiqoqtlar o‘tkazishga sharoit yaratib berish.

Texnikumning tegishli xodimlari tomonidan Kompyuter injiniring, Matematika va informatika yo‘nalishi bitiruvchilarini selksiya qilish asosida ularni amaliyotga va ishga qabul qilish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish.

Hamkorlikda texnikumni istiqbolli rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

Mazkur shartnomaning tuzilishi va undagi shartlarning bajarilishi AT kafedrasi va bo‘lim orasida tuziladigan o‘zaro manfaatli boshqa shartnomalarga zid bo‘lmasligi shart.

II. O‘zaro hamkorlik bo‘yicha AT kafedrasining vazifalari

2.1. AT kafedrasining sohaga oid texnik ta’lim (kompyuter injiniring, Sun’iy intellekt, matematika va informatika) yo‘nalishlardagi har bir talabasini 2-kursdan boshlab maktabda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o‘tkazishini hamda ixtisoslik fanlarining amaliy mashg‘ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish.

2.2. AT kafedrasining soha mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilarni (kompyuter injiniring, Sun’iy intellekt, matematika va informatika ta’lim yo‘nalishlari) ishga joylashtirish bo‘yicha aniq choralar ishlab chiqarish.

2.3. Ishlab chiqarish, ilm-fan va ta’lim o‘rtasida integratsiyani chuqurlashtish maqsadida bo‘limga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish muammolari mavzulari bazasini shakllantirilishida ishtirok etish.

2.4. Texnikumning ilmiy-texnik rivojlantirish muammolarini AT kafedrasi bilan xo‘jalik shartnomalarini tuzgan holda amalga oshirish, xo‘jalik shartnomalarini bajarish ishlariga doktorantlar, magistranntlar va iqtidorli talaba yoshlardan iborat tadqiqotchilarni tizimli ravishda jalb qilishini tashkil etiush.

2.5. AT kafedrasi professor-o‘qtuvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan bo‘limga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta’lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazib borishni amalga oshirish.

2.6. AT kafedrasining soha yo‘nalishlariga mos kafedralari qoshida oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlik guruhlarini shaklantirish.

2.7. O‘quv materiallarini texnikumning istiqbolli vazifalari va muammolari asosida yangilash va boyitib borish.

2.8. Texnikum rahbari va mutaxxassislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishi uchun sharoit yaratish.

2.9. Talabalarni ish joylariga dastlabki taqsimlashni bituruvchi kurs so‘ngida emas, balki mos ravishda ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi kursda tahsil olayotgan davrda o‘tkazish va barcha turdagi amaliyotlarni texnikumda o‘tishini yo‘lga qo‘yish.

III. O‘zaro hamkorlik bo‘yicha Texnikumning vazifalari

3.1. AT kafedrasining (kompyuter injiniring, Sun’iy intellekt, matematika va informatika) ta’lim yo‘nalishlaridagi har bir talabaning 2-kursdan boshlab bo‘limda malakaviy amaliyotlarni tizimli ravishda o‘tkazilishiga tashkillashtirishini amalga oshirishga sharoit yaratish.

3.2. AT kafedrasining sohaga mos texnik ta’lim yo‘nalishlari mutaxassisliklari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo‘yicha ko‘maklashish va Texnikumda kafedra fialini tashkil etish.

3.3. Ishlab chiqarish ilm-fan va ta’lim o‘rtasida integratsiyani chuqurlashtirish maqsadida texnikumga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo‘nalishlari muammolari mavzulari bazasini shaklantirishda ko‘maklashish.

3.4. Texnikumga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo‘nalishlari muammolari bo‘yicha kafedra bilan xo‘jalik shartnomalrini tuzish.

3.5. Kafedra professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari va talabalari bilan bo‘limga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta’lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazib borishga sharoit yaratish.

3.6. Kafedra ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari talabalari uchun tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo‘nalishlari muammolari bo‘yicha Texnikumning yetakchi mutaxasislari tomonidan amaliy seminarlarni tashkillashtirish.

3.7. Texnikumga tegishli ilmiy-texnik rivojlantirish yo‘nalishlari muammolari bo‘yicha bitiruv malakaviy ish va magistrlik dissertatsiyalari hamda kurs ishi va loyiha mavzularini shakillantirishda Amaliy yordam berish, shart-sharoitlar yaratish.

3.8. Doktorantlar, magistratura talabalarini texnikumning muammoli masalalariga bag‘ishlangan dissertatsiya mavzulari ustida ishlashni, shuningdek, tajriba-sinovlarni o‘tkazish, amaliyotga tadbiq etrilgan ishlar mualliflari bo‘lgan hamda ixtirochilik patentini qo‘lga kiritgan doktorant va magistrlarni o‘qituvchilarni lavozimi bo‘yicha oylik ish haqqi miqdorining belgilangan tartibda bo‘lim hisobidan moddiy rag‘batlantirish.

3.9. Kafedraning sohaga mos ta’lim kafedralari qoshida shakillantiriladigan oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ guruhlarga Texnikumning yetuk mutaxassislarini biriktirish.

3.10. Kafedra professor-o‘qituvchilarining bo‘limda vaqtinchalik Amaliy tadqiqot o‘tkazishga sharoit yaratib berish.

3.11. Texnikumning mutaxxasislar tayyorlash sifatiga bo‘lgan talablarini tizimli o‘rganib borilishini tashlik etish maqsadida stajirovkalarga kelgan professor-o‘qituvchilari uchun sharoitlar yaratib borish.

3.12. Ta’tillar davrida kafedra talabalarini bo‘limda vaqtinchalik ish bilan ta’minlash.

3.13. Texnikumdagi bo‘sh vakant o‘rinlarni malakali bitiruvchi talabalar bilan to‘ldirib borish.

3.14. Kafedra o‘quv rejasida belgilangan ishlab chiqarish va malaka amalaiyotlarini o‘tash davrida talabalarda amaliyotchi maqomi berish va amaliyot davri davomida imkoniyat doirasida ish haqqi to‘lanadigan lavozimga ishga qabul qilish.

3.15. Texnikum rahbari va mutaxasislarini bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishni ta’minlash.

3.16. Kompyuter injiniring, matematika va informatika, Sun’iy intellect ta’lim yo‘nalishi talabalariga texnikum mas’ul xodimini biriktirish, bunda briktrilgan xodim amaliyotchi bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishini ta’minlash, bo‘limida amaliyotchidan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish, amaliyotchilar uchun ish joyi va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratilishini tashkil etish.

IV. Xarajatlarni belgilash

4.1. Mazkur shartnomada Tomonlar uchun xech qanday moliyaviy xarajatlar nazarda tutilmaydi.

4.2. Ushbu shartnomada belgilangan vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq zarur xarajatlar Tomonlarning alohida kelishuvi asosida tartibga solinadi.

V. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish

5.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va **uch yil** davomida amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida uzaytirilishi mumkin.

5.2. Ushbu shartnomaning shartlari o‘zaro kelishuvlarga asosan o‘zgartirilishi, to‘ldirilishi yoki muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Shartnoma bekor qilinishi ko‘zda tutilgan hollarda tomonlar kamida bir oy oldin yozma ravishda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

5.3. Shartnoma bekor qilinish sanasidan qat’iy nazar dastur bo‘yicha ta’lim olishni boshlagan talaba ushbu shartnomada belgilangan shartlar bo‘yicha o‘qishni yakunlaydi.

5.4. Tomonlar mazkur shartnoma bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va teng huquqlilik tamoyillari asosida o‘zaro munosabatda bo‘lishadi.

5.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo‘lib, tomonlar uchun teng qonuniy kuchga egadir.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog‘liq holda Tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar, tomonlar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.

6.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o‘zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo‘lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pochta manzili:
100185, Surxondaryo viloyati, Denov tumani,
Bog‘ ko‘chasi, 112-uy
info@dtpi.uz

Rektor _____ **O.A.Ruziyev**
(imzo va muhr)

Yurist konsult
_____ Sh.Mirzaqulov

Denov tuman 4-son politexnikumi
Pochta manzili:
190504, Surxondaryo viloyati, Denov tuman
Chambil MFY, Qumqishloq ko‘chasi 1-uy.
tel.: 97 352 63 00

Direktor _____ **B.Axrorov**
(imzo va muhr)